

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

GAFFAROVA SHAXNOZA NURITDINOVNA

**O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR VA ERKAKLAR
TENG HUQUQLILIGINI TA’MINLASHNING
NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI**

12.00.01 – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Huquqiy ta’limotlar tarixi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Gaffarova Shaxnoza Nuritdinovna

О'zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlashning nazariy-
huquqiy masalalari3

Gaffarova Shakhnoza Nuritdinovna

Theoretical-legal issues of ensurance of the equal rights for women and men
in Uzbekistan.....23

Гаффарова Шахноза Нуритдиновна

Теоретико-правовые вопросы обеспечения равноправия женщин и мужчин
в Узбекистане.....41

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati

Список опубликованных научных работ

List of published scientific works.....45

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

GAFFAROVA SHAXNOZA NURITDINOVNA

**O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR VA ERKAKLAR
TENG HUQUQLILIGINI TA’MINLASHNING
NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI**

12.00.01 – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Huquqiy ta’limotlar tarixi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2020.4.PhD/Yu407-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yusupova Nigora Jaloliddin qizi,
yuridik fanlar doktori, dotsent

Rasmiy opponenlar:

Yakubov Shuhrat Ummatalievich,
yuridik fanlar doktori, professor

Aliyeva Kamola Ravshanovna,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

**O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi qoshidagi Yuristlar
malakasini oshirish markazi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 6-may kuni soat 14.00 da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 13-uy. Tel.: (998) 71-233-66-36; faks: (998) 71-233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1141 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., A. Temur ko'chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "_____" aprelda tarqatildi.

(2023-yil "_____" apreldagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

R.R. Xakimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

B.A. Narimanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

I.R. Bekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

KIRISH (Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda mavjud demokratik davlatlarda inson huquqlarining ajralmas qismi hisoblangan xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning kafolatlanishini amalga oshirish, ularni kamsitilishdan, stereotiplardan himoya qilishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, BMTning 2030-yilgacha erishilishi lozim bo'lgan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlaridan biri sifatida gender tenglikni ta'minlash vazifasi belgilangan bo'lib, mazkur maqsadni amalga oshirishda gender tengligiga erishish va barcha ayollar va qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb ahamiyatga ega¹. Ushbu xalqaro-huquqiy e'tirof davlatlar zimmasiga xotin-qizlar va erkaklar huquqlarini teng himoya qilish bo'yicha huquqiy mexanizmlarni hayotga joriy etish vazifasini qo'yimoqda.

Jahonda xotin-qizlar va erkaklar huquqlarini teng himoya qilish, jumladan gender tengligi, barcha turdagi kamsitishlarni bartaraf etish, zo'ravonlik va tazyiqlarning oldini olish, xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fanda huquqiy mexanizmlarni shakllantirish, gender tengligini ta'minlashda huquqning fundamental prinsiplarini qo'llashning xususiyatlari, davlatlar tomonidan gender tengligini ta'minlashda ijtimoiy sheriklikni takomillashtirish masalalarida ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning manfaatlarini teng himoya qilish hamda huquqiy amaliyotda ta'minlash masalalarida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida “jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, shu bilan birga gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish”² ustuvor maqsad sifatida belgilangan. Bu ayni vaqtda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlash huquqiy mexanizmlarini yanada rivojlantirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi O'RQ-562-son (2019) hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi O'RQ-561-son Qonunlari (2019), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni (2022), “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash

¹ <https://uzbekistan.un.org/en/sdgs/5>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 10.02.2023 y., 06/23/21/0085-son.

tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son Farmoni (2022), "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni (2022), "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5020-son Qarori (2021), shuningdek, Oliy Majlis Senati qarori bilan tasdiqlangan SQ 297-IV-son "O'zbekiston Respublikasida 2030-yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasi", Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 83-son Qarorida (2022) va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi masalasi, ayol huquqlari va uning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishning muayyan jihatlari ayrim tadqiqotlar doirasida amalga oshirilgan va ularga doir umumiy tasavvur hamda fikrlar shakllangan. Mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, inson va ayollar huquqlarini himoya qilishning hamda gender masalalarining ayrim nazariy-huquqiy jihatlari bir qator olimlar: Q. Azizova, A. Akilov, K. Aliyeva, D. Alimova, D. Alimjonova, F. Ataxodjaev, F. Axmedshina, D. Bazarova, G. Ganieva, M. Inagamova, G. Matkarimova, F. Muxitdinova, N. Muravyova, T. Norboeva, X. Odilqoriev, F. Otaxanov, G. Raximova, A. Saidov, L. Saidova, S. Safaeva, D. Sufieva, Z. Tursunova, F. Xamdama, Sh. Hamraeva, S. Xodjaeva, E. Fayzullaeva, I. Shkolnikov, O. Shnirova, I. Cherkashina, N. Yusupova, G. Yuldashaeva, M. Qodirxonovlar tomonidan o'rganilgan¹.

Masalan, G. Matkarimova tomonidan ayollarning gender va reproduktiv huquqlari milliy va xalqaro huquq kontekstida tadqiq etilgan² bo'lsa, M. Inagamova ayol huquqlarini himoya qilishda ichki ishlar organlari ishtirokining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy va huquqiy masalalarini, F. Xamdama tomonidan ayollar huquqlarini ta'minlash va himoya qilish masalalari bo'yicha xalqaro-huquqiy hamkorligi³, K. Aliyeva esa O'zbekistonda gender

¹ Mazkur olimlarning ishlari dissertatsiya tadqiqotining foydalanilgan adabiyotlar qismida keltirilgan.

² Matkarimova G.A. Гендерные и репродуктивные права женщин в международном и национальном праве // Автореф. дис... д-ра.ю.н. – Т., 2002. – 41 с.

³ Inagamova M.M. Ayol huquqlarini himoya qilishda ichki ishlar organlari ishtirokining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish // Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi – T., 2019. – 179 b.; Xamdama F. O'zbekiston Respublikasining ayollar huquqlarini ta'minlash va himoya qilish masalalari bo'yicha xalqaro-huquqiy hamkorligi // Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoref. – T., 2020. – 56 b.;

tenglikni ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari¹ni ilmiy tahlil etgan.

Xorijiy olimlardan xotin-qizlar va erkaklar tengligini ta'minlash masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlardan Sh. Bern, M. Veber, O.A. Voronina, Dj.S. Mill, E.M. Yefremova, Y.A. Zdravomislova, A.V. Kochetkov, A.A. Maksimov, S. Bovuar, G. Teylor, X. Teylor, A.A. Temkina, I.A. Shkolnikov, N.A. Shvedova, Ch. Boll, S. Farell, A. Langemann, W.N. Lekfangfu, J. Lober, G. Lordan, E. Murphy, D. Oesch²va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlari o'rganildi.

Lekin xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlashning nazariy-huquqiy masalalari mavzusi kompleks tarzda, alohida dissertatsiya tadqiqoti shaklida hozirga qadar ilmiy tahlil etilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat boshqaruvini yanada erkinlashtirishning asosiy yo'nalishlari" mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlashning nazariy-metodologik jihatlari va huquqiy mexanizmini kompleks tadqiq etish hamda uni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi mohiyati va bu boradagi nazariy yondashuvlarni ilmiy tadqiq etish;

xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini hamda imkoniyatlar tengligini ta'minlashning huquqiy asoslarini ilmiy tahlil etish;

xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlash bo'yicha milliy tajribaning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish;

xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlashda davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi xususiyatlarini yoritish hamda istiqbollarni ko'rsatib berish;

xorijiy mamlakatlar tajribasida xotin-qizlar va erkaklar huquqlarining teng huquqliligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy va institutsional mexanizmlarini tavsiflash;

O'zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlash borasidagi mavjud muammolarni o'rganish asosida ularning huquqiy yechimlarini topish yo'llarini ishlab chiqish;

xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlash borasidagi huquqiy mexanizmlarning ustuvor yo'nalishlarini tahlil etish va yanada takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlash bilan bog'liq huquqiy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

¹ Aliyeva K.R. O'zbekiston Respublikasida gender tengligini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari // Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoref. – T., 2021. – 48 b.;

² Mazkur olimlarning ishlari dissertatsiya tadqiqotining foydalanilgan adabiyotlar qismida keltirilgan.

Tadqiqotning predmeti xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligiga oid konseptual g'oyalar, ilmiy qarashlar, nazariyalar, huquqiy amaliyot, xorijiy tajriba hamda mazkur sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda ijtimoiy fanlar, xususan, davlat va huquqiy fanlar uchun umumiy bo'lgan qiyosiy-huquqiy tahlil, kompleks yondashuv, tizimli-strukturali yondashuv, mantiqiy, kuzatish, tarixiy va tadqiqot olib borishning boshqa usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

davlat tomonidan gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jins bo'yicha kamsitishni bartaraf etish va oldini olish kabi vaqtinchalik maxsus choralar ko'rilishi asoslab berilgan;

davlat organlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha vakolatli mansabdor shaxs belgilanishi va vakolatli shaxsning majburiyatlarini bajarish davlat organi rahbarining o'rinbosarlaridan biri zimmasiga yuklatilishi lozimligi asoslab berilgan;

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi gender siyosatini, davlat dasturlarini hamda strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish asoslab berilgan;

Vazirlar Mahkamasining xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirishdagi vakolatlari belgilanib, bu borada davlat dasturlari va strategiyalarni tasdiqlashi xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xotin-qizlar teng huquqliligini himoya qilish inson huquqlari doirasida kichik tarmoq sifatida ko'rib chiqilganligi asoslantirilgan;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan davlat strategiyasi, dasturlar va rejaları bajarilishini nazorat qilishning elektron tizimini (platformasini) yaratish zarurligi asoslab berilgan;

davlat va jamiyat boshqaruvi organlarida, shu bilan bir qatorda, jamoatchilikda gender tenglikka nisbatan noto'g'ri qarash va munosabatlarni o'zgartirmasdan turib xotin-qizlar va erkaklar tengligini ta'minlash borasida kutilgan natijalarga erishib bo'lmaydi. Buning uchun ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot ishlarini kuchaytirish hamda jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishni, gender stereotip (salbiy amaliyot)ni targ'ib qilish va ma'qullashni aks ettiruvchi axborotni tarqatishni cheklash va media mahsulotlarini gender ekspertizadan o'tkazish zarurligi ko'rsatib berilgan;

gender tenglik g'oyalarini shakllantirish va jamoatchilik ongiga yetkazish, undan ko'zlangan maqsadga erishish faoliyatini kengaytirish, aholining xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi sohasidagi dunyoqarashini demokratik talablar asosida boyitish, ularning gender stereotiplarga bo'lgan qarashlarini o'zgartirish, ijtimoiy tenglik va gender muvozanatni ta'minlashda bag'rikenglik, adolatlilik g'oyalarini singdirish choralari ko'rib borish lozimligi asoslantirilgan;

davlat xizmatida, shu jumladan, rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar manfaatini ifoda etish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida davlat xizmatidagi xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlovchi “Xotin-qizlar assotsiatsiyasi” nodavlat-notijorat tashkilotini ta’ sis etish zarurligi asoslab berilgan;

gender tenglik yetarli sabablar asosida vaqtinchalik maxsus choralar joriy etgan holda ta’minlanishi kerak. Maxsus choralarni qo‘llash bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo‘lib, unda maxsus choralar nimalardan iborat ekanligi, ular qo‘llanishi lozim bo‘lgan holatlar, maxsus choralarni qo‘llash muddatlari va boshqa masalalar aniq ko‘rsatilishi lozimligi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishida foydalanilgan adabiyotlar va qonun hujjatlari rasmiy manbalardan olingan hamda ularga belgilangan talablar asosida havola qilingan. Ilmiy tadqiqot ishining yakuni bo‘yicha nazariy xulosalar va amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar, davlat-huquqiy fanlarga tegishli ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar, shuningdek, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta’minlovchi qonun hujjatlari, xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi va tajribasini qiyosiy tahlil etish asosida ilgari surilgan. Shu bilan birga, dissertatsiya ishining dastlabki natijalari amaliyotda joriy qilingani va bu vakolatli idoralar tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangani tadqiqot natijalarining ishonchliligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta’minlash tizimini takomillashtirishning nazariy-huquqiy asoslari, davlat organlari, fuqarolik institutlari va nodavlat-notijorat tashkilotlari hamkorligini amalga oshirishda, ilmiy izlanishlarni olib borishda hamda ushbu muammoning ilmiy-nazariy asoslarini yanada rivojlantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ulardan milliy qonunchilikni takomillashtirishda, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari uchun maxsus adabiyotlarni va uslubiy qo‘llanmalar tayyorlashda hamda Inson huquqlari, Davlat va huquq nazariyasi, Konstitutsiyaviy huquq, Oila huquqi, Fuqarolik huquqi, Mehnat huquqi, Davlat va huquq tarixi, Ma’muriy huquq, Gender nazariyasi, Gender huquqi kabi fanlarni o‘qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jins bo‘yicha bevosita va bilvosita kamsitishni bartaraf etish hamda ularning oldini olish maqsadida davlat tomonidan gender siyosati amalga oshirilishini ta’minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko‘rilishiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son Qonuni 6-moddasi uchinchi qismini ishlab chiqishda e’tiborga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining 2021-yil 22-maydagi 05/1-01-102-son dalolatnomasi). Mazkur taklif xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlanishiga xizmat qilgan;

davlat organlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha vakolatli mansabdor shaxs belgilanishi va vakolatli shaxs majburiyatlarini bajarish davlat organi rahbarining o'rinbosarlaridan biri zimmasiga yuklatilishiga oid taklif O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son Qonuni 13-moddasi ikkinchi qismini ishlab chiqishda e'tiborga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasining 2021-yil 22-maydagi 05/1-01-102-son dalolatnomasi). Mazkur taklif davlat organlarida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlash majburiyatini bevosita davlat organi rahbari o'rinbosariga yuklashga xizmat qilgan;

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi gender siyosatini, davlat dasturlarini hamda strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga oid taklif O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-561-son Qonuni 5-moddasi ikkinchi xatboshisiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasining 2021-yil 22-maydagi 05/1-01-101-son dalolatnomasi). Ushbu taklif xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilashda davlat dasturlari hamda strategiyalari rolini yuksaltirish hamda ularni ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasini aniqlashtirishga xizmat qilgan;

Vazirlar Mahkamasining xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlashga oid takliflari O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-561-son Qonuni 6-moddasi ikkinchi xatboshisini ishlab chiqishda e'tiborga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasining 2021-yil 22-maydagi 05/1-01-101-son dalolatnomasi). Mazkur takliflar Vazirlar Mahkamasining xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirishdagi vakolatlarini aniqlashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishining natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya hamda davra suhbatlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida hamda ularga tenglashtirilgan nashrlarda 7 ta (6 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) maqola va tezislar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat. Ishning hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlashning nazariy-huquqiy tavsifi**" deb nomlanib, ushbu bobda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi mohiyati va bu boradagi nazariy-huquqiy yondashuvlar hamda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlashning huquqiy asoslari tadqiq etilgan.

Dissertant ushbu bob doirasida jamiyatda xotin-qizlar mavqeyini yaxshilash xalqaro majburiyatlardan biri hisoblanishi, davlat gender tenglikni kafolatli ta'minlashning huquqiy choralari ko'rishi lozimligi, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlash borasida qilingan harakatlar ma'lum ma'noda o'zining samarasini berishini tahlil etgan.

Tadqiqotchi gender tenglik masalalari bilan shug'ullanayotgan olimlar (Q. Azizova, A. Akilov, K. Aliyeva, D. Alimova, D. Alimjonova, F. Ataxodjaev, F. Axmedshina, N. Yusupova, G. Yuldasheva, M. Qodirxonova, N.A. Shvedova, Ch. Boll, S. Farell, A. Langemann, W.N. Lekfangfu, J. Lober, G. Lordan, E. Murphy, D. Oesch) ishlari tahlili natijasida gender tengligi amalga oshirilayotgan mamlakatlarni to'rt guruhga ajratib o'rganishni taklif qilgan.

Doktrinal qarashlar tahlili natijasida muallif xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy adolat me'yorlari, mehnat taqsimoti, jins tengligini kamsitmaydigan urf-odatlar, an'analar va qadriyatlar, faoliyat turlari, qarashlar jins va gender farqlanishida inobatga olinishi kerakligini qayd etadi.

Dissertant tomonidan xalqaro huquqiy fundamental hujjatlar tizimli tahlil qilingan holda gender muammosi erkak va ayollarning hayot va faoliyatining barcha sohalarda tengligidir, degan g'oya ilgari surilgan holda u o'z ichiga **to'rtta asosiy yo'nalish**: huquqlar tengligi, mas'uliyat tengligi, imkoniyatlar tengligi, erkaklar va ayollarning teng hamkorlik munosabatlarini qamrab olishi asoslab berilgan.

Tadqiqotchining gender tengligining huquqiy asoslari tahliliga ko'ra, O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashning huquqiy asoslari to'rt bosqichga ajratib o'rganilishi zarurligi ko'rsatib berilgan, birinchi bosqich – 1991–2005-yillar, ikkinchi bosqich – 2006–2016-yillar, uchinchi bosqich – 2017–2021-yillar va to'rtinchi bosqich – 2022-yildan boshlandi. Bunda to'rtinchi bosqichni alohida bosqich sifatida ajratish sabablari sifatida: davlatning gender siyosati va tegishli

huquqiy asoslari mazmunan keskin o'zgarishi va yangi sifat belgilariga ega bo'lishi, uning tashkiliy-huquqiy mexanizmida bir qator yangi huquqiy prinsip, tartib-taomil, talab va vazifalar o'z o'rnini topganligi, shu sohaning institutsional va funksional tub o'zgarishlari inobatga olingan.

Dissertant gender masalalari bo'yicha xalqaro tajribada sinalgan uchta asosiy modelni ajratib ko'rsatib ko'rsatgan. Ular: sotsial-demokratik (kontinental); liberal (anglo-sakson); tor milliy modellar. Tadqiqotchining fikricha, O'zbekiston Respublikasi gender masalalari va milliy huquq tizimi qonunchilik taraqqiyoti nuqtayi nazaridan sotsial-demokratik (kontinental) modeliga hamohang ravishda rivojlanmoqda.

Gender tengligining milliy-huquqiy kafolatlar tizimi ayollar va erkaklar tengligini real hayotda ta'minlashga qaratilgan. Dissertant ko'rilgan choralarga qaramay, gender tengligi mamlakatimizda hali kerakli darajada ta'minlanmagan, ishlab chiqilgan 54 turdagi gender tengligini monitoring qilish ko'rsatkichlari tizimi to'liq joriy qilinmaganligini tahlillar asosida ko'rsatib o'tadi.

Tadqiqotchining fikricha, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ifodalashda formal (rasmiy) tenglik va faktik (haqiqiy) tenglik tushunchalaridan foydalanish masalaning mohiyatini ifodalashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dissertantning fikricha, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar borasida ijtimoiy ongini shakllantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalari gumanitar yo'nalishlari talabalariga gender huquqi va boshqa gender yo'naltirilgan fanlar o'tilishini joriy etish lozim. Ushbu tizim orqali gender muammolarini ayol va erkak talabalar o'rtasida keng o'rganishga, zamonaviy tadqiqotlar olib borilishiga, maxsus amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishiga hamda jinslar o'rtasidagi nomutanosiblikni, shu jumladan, davlat xizmatida bartaraf etishga erishish mumkin.

Tadqiqotchining qayd etishicha, gender munosabatlardagi muammolarni hal etish davlat va jamiyatning demokratik talablar asosida rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bois jamiyatda gender munosabatlarni shakllantirish jarayonlarida mamlakatning ijtimoiy, tarixiy tajribasiga tayanish hamda davlat boshqaruvining demokratik talablariga asoslanish lozim.

Dissertatsiya doirasida xotin-qizlarning davlat boshqaruvi va siyosiy jarayonlarda keng ishtirok etishini ta'minlash, jamiyat va davlat boshqaruvining barcha sohalarida ularga teng imkoniyatlar yaratilishini huquqiy jihatdan mustahkamlash lozimligi, xotin-qizlarning manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyat hayotidagi o'rnini va nufuzini oshirishga qaratilgan tadbirlar tashkil etish, ularning mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash uchun zarur teng shart-sharoitlar yaratishga e'tibor qaratish muhim yo'nalish sifatida ko'rsatib berilgan.

Dissertantning fikricha, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan davlat strategiyasi, dasturlar va rejaları bajarilishini nazorat qilishning umumiy elektron tizimini (platformasini) yaratish maqsadga muvofiqdir. Ushbu elektron platformani yuritish vazifasini Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasiga yuklatish, u tomonidan har yarim yilda gender masalalariga oid davlat strategiyasi, dastur va rejaları bajarilishi bo'yicha ma'lumotnomani

hukumat va parlamentga taqdim etishi majburiyatini belgilash maqsadga muvofiq sanaladi.

Tadqiqotda milliy qonunchilikda erkaklar va ayollarning teng huquqliligi borasidagi normalar yetarli bo'lsa-da, uning amaliy natijasi sezilarli darajada emasligi asoslab berilgan. Xotin-qizlarning o'z huquq va yuridik imkoniyatlaridan samarali foydalanishi ularning huquqiy madaniyati, ongi va bilimlar darajasi hamda huquqiy xatti-harakatiga ham bog'liq. Xotin-qizlarning moddiy, ma'naviy qaramligi daromaddagi tengsizlik turli muammolarga sabab bo'ladi. Gender tengligini huquqiy ta'minlashning aniq yuridik mexanizmlarini ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasiga qo'shimcha kiritish zarurligi asoslab berilgan.

Dissertatsiyada xotin-qizlarning mehnat faoliyatidagi maqomi va huquqlari erkaklar huquqlari bilan taqqoslagandagi bir qator muammolari mavjudligi ko'rsatib berilgan. Unda ko'rsatilishicha, xotin-qizlar jinsiga bog'liq holda kasb tanlashida yetarli huquqiy mexanizm va kafolatlar mavjud emas. Bu ayrim hollarda xotin-qizlarning kamsitilishiga sabab bo'ladi. Ular imkoniyati va iqtidoriga mos bo'lgan kasbni tanlash uchun qo'shimcha imtiyoz beruvchi huquqiy vositalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shu bois tadqiqotchi xotin-qizlar jamiyatda o'zlarini to'la namoyon qila olishi, liderlikka, rahbarlik lavozimlariga, mas'uliyatli qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida alohida davlat dasturini ishlab chiqishni taklif qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlashning huquqiy mexanizmi”**ga bag'ishlangan bo'lib, uch paragrafni o'z ichiga olgan. Mazkur bobda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlovchi institutsional tizim, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlashda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligi hamda xotin-qizlar va erkaklar tengligini ta'minlash borasidagi xalqaro va milliy-huquqiy kafolatlar tizimi kabi masalalar tadqiq etilgan.

Dissertant tomonidan O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlar va erkaklar tengligini ta'minlashning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda xalqaro huquq normalariga asoslangan huquqiy tizimi yaratilgani ko'rsatib berilib, gender tengligi qonuniylik, demokratizm, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmaslik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplariga asoslanganligi, xotin-qizlarning asosiy huquq va erkinliklari alohida qonunlar bilan kafolatlangani tahlil etilgan.

Tadqiqotchi xotin-qizlar va erkaklar tengligini ta'minlash borasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim, deb hisoblaydi:

- xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan jamg'armalar sonini ko'paytirish, og'ir moliyaviy ahvolga tushgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror va qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lishlariga ko'maklashish tizimini yaratishga;

- xotin-qizlarning gender tengligi buzilishiga oid murojaatlarini ko'rib chiqish shaffofligini ta'minlash, xotin-qizlar va erkaklarning ish haqi o'rtasidagi farqni iqtisodiy tahlil qilish orqali aniqlash va ularni tenglashtirish choralarini ko'rishga;

- davlat organlari va jamoatchilik tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan iqtidorli va lider xotin-qizlarni aniqlash va ularni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash va tayinlashning huquqiy mexanizmlarini yaratishga;

- xotin-qizlarning erkin kasb tanlashi, ijtimoiy-siyosiy sohalardagi faoliyatiga to‘siq bo‘layotgan tizimli muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarni ko‘rishga.

Dissertant hozirda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligini ta‘minlash uchun xotin-qizlarning ijtimoiy va huquqiy maqomini oshirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish, gender tengsizlik natijasida yuzaga keladigan kamsitish va zo‘ravonlikning oldini olishda jamoatchilik ekspertizasi va eshituvlarini tashkil etish amaliyotini kengaytirish lozimligini ko‘rsatib o‘tgan.

Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, nafaqat ta‘lim muassasalari, balki NNTlar ham xotin-qizlarni yetakchilikka, jamoatchilik bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga, qarorlar qabul qilish borasidagi salohiyatini o‘stirishga xizmat qiladi. Jamiyatda ayollarga nisbatan salbiy munosabatni o‘zgartirish, xotin-qizlarning mamlakat huquqiy va siyosiy jarayonlarida samarali ishtirok etishini ta‘minlash, ularning ijtimoiy maqomini oshirish, huquqlarini hurmat qilish, stereotiplarga nisbatan murosasiz bo‘lish gender tengsizlik natijasida kelib chiqadigan kamsitish va zo‘ravonlikning oldini olishga xizmat qiladi.

Dissertantning fikricha, xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish va xotin-qizlar va erkaklarning tengligini ta‘minlash maqsadida barcha davlat hokimiyati va o‘zini o‘zi boshqarish organlarida ayollar uchun kvotalar joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Tadqiqotchi tomonidan gender tenglik g‘oyalarini shakllantirish va jamoatchilik ongiga yetkazish, undan ko‘zlangan maqsadga erishish faoliyatini kengaytirish, aholining xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi sohasidagi dunyoqarashini demokratik talablar asosida boyitish, ularning gender stereotiplarga bo‘lgan qarashlarini o‘zgartirish, ijtimoiy tenglik va gender muvozanatni ta‘minlash, bag‘rikenglik, adolatlilik g‘oyalarini singdirishda NNTlarning o‘ziga xos o‘rni asoslab berilgan.

Dissertatsiyani ushbu bobi doirasida davlat hamda jamiyat boshqaruvi organlarida faoliyat yuritayotgan, shahar markazlarida yashab, ishlayotgan xotin-qizlar chekka tumanlarda yashayotgan xotin-qizlar bilan taqqoslanganda katta tafovut mavjudligi tahlil qilinib, oliy ma‘lumot olish bilan bog‘liq statistik ko‘rsatkichlar ham xuddi shunday ekanligi ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqotchining fikricha, xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan shug‘ullanuvchi NNTlar o‘z faoliyatlarida mavjud muammolarni bartaraf qilishga ko‘makchi bo‘lishi zarur. Bu, o‘z navbatida, demokratik islohotlar izchilligi va fuqarolik jamiyati g‘oyalarining amaliy natijalariga xizmat qilib, natijada qishloq xotin-qizlari orasidan ham yetuk olim va rahbarlar yetishib chiqishiga amaliy zamin yaratiladi. Qishloq hayotini yaxshi bilgan rahbar ayollar hududlarda yuzaga kelayotgan muammolarning asl mohiyatini tushunadi va uning yechimi bo‘yicha ham asosli takliflar bera oladi.

Shuningdek, qishloqlarda xotin-qizlarning ishsizlik darajasi ham yuqori hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, turli ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. NNTlar joylarda qishloq xotin-qizlarining kasbiy mahoratini oshirish va ularning

iste'dodlarni ro'yobga chiqarish borasida ijtimoiy loyihalarni muntazam amalga oshirishlari lozim. Qishloq xotin-qizlarining huquqiy, iqtisodiy, siyosiy bilimining kamligi ular adolatsiz qaramlikda qolib ketishiga ham sabab bo'ladi. Qishloq xotin-qizlari asosan qishloq xo'jaligida ko'pincha kam haq to'lanadigan og'ir mehnat bilan bandligi ham hech kimga sir emas. Shu bilan birga, oila xo'jaligida ham jismoniy mehnat kuchi va ko'p vaqtni sarf etishlari ayni haqiqatdir.

Tadqiqot ishida milliy olimlar tadqiqotlari (F. Axmedshina, E. Fayzullaeva, G. Mamatkarimova, K. Aliyeva va boshq.) va huquqni qo'llash amaliyoti tahlili asosida gender tengligini ta'minlashdagi asosiy muammolar ko'rsatib berilgan bo'lib, unga ko'ra, qarorlar qabul qilishda xotin-qizlarning vakilligi yetarli darajada ta'minlanmaganligi, gender ta'lim tizimining zaifligi, mehnat bozorida ayollarning raqobatbardoshligi pastligi tufayli qashshoqlikning feminizatsiyasi, ishsizlikning o'sishi, gender stereotiplari kabilar alohida ajratib berilgan.

Dissertantning fikricha, gender tengligini faqat ijtimoiy huquqiy davlat sharoitidagina ta'minlash mumkin bo'lib, bunda davlat va jamoatchilik kuchlarini birlashtirish orqali ta'minlangan gender siyosati xotin-qizlar va erkaklarning jamiyatdagi mavqeyini tenglashtirishga, oila institutini mustahkamlashga qodir.

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan ilmiy izlanishlar natijasida jahon davlatlarida "gender tenglik" tushunchasi bir-biridan farq qilishi asoslab berilgan. Ishda gender tenglik borasida xalqaro tan olingan tashkilotlarning dastur va rejalarida belgilangan qarashlarga qo'shilish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

Dissertantning fikricha, gender tengligiga erishish darajasini xolis o'rganish va baholashni ta'minlash, ayollarning davlat boshqaruvi jarayonida ishtirokini kengaytirishga imkon beradigan, gender jihatdan tengligini ta'minlaydigan aniq va konkret ko'rsatkichlar va indikatorlardan foydalanish lozim.

Dissertatsiyada O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini har tomonlama ta'minlashga qaratilgan 25 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi ko'rsatilib, ushbu hujjatlarda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan asosiy chora-tadbirlar va ularning xalqaro tendensiyalarga mosligi masalalari ham tahlil qilingan.

Tadqiqotchining fikricha, bugungi kunda gender tenglik masalasida ilmiy tadqiqotlarda gender mafkurasi o'z aksini topganligi, buning qanday amalga oshirilishini tushunish uchun birinchi navbatda gender mafkurasining asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash zarurligi asoslab berilgan.

Dissertant gender tenglik borasidagi jahon tajribasini o'rganish va tahlil qilish jarayonida bu sohada ham yovuz maqsadlar va qarama-qarshi fikrlar mavjudligiga guvoh bo'lish mumkin, degan xulosaga kelgan. Uning fikricha, gender tengligi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan izlanuvchilardan ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish jarayonida hushyorlik va sezgirlik talab etiladi. Milliy ma'naviyatimiz, o'ziga xos bo'lgan qadriyatlarimiz, sof insoniy munosabatlarimiz har narsadan ustun turishini unutmasligimiz kerak. Bizda ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan oilada, jamiyatda, yaxshi qo'shnichilik munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida tenglik va adolatga asoslangan qadriyatlar borki, ularsiz o'zbek millatini tasavvur etib bo'lmaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta‘minlashga oid xorijiy tajriba va milliy qonunchilikni takomillashtirish yo‘nalishlari”** deb nomlanib, ushbu bobda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta‘minlash borasida xorijiy tajriba, bu boradagi muammolar va ularning yechimlari hamda uning huquqiy mexanizmini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari tadqiq etilgan.

Dissertatsiyada xalqaro tajribani qiyosiy-huquqiy tahlil qilish natijasida Yevropa davlatlarida ham xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta‘minlash borasidagi ishlar xalqaro huquq normalari talablari darajasida emasligi, ammo keyingi yillarda gender tenglikni ta‘minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilganligi ko‘rsatib berilgan.

Ayol va erkak jins egalarining tengligi bo‘yicha hali mavjud muammolar bo‘lishiga qaramay, Yevropa Ittifoqi so‘nggi o‘n yilda sezilarli yutuqlarga erishdi va bu yutuqni takomillashtirib bormoqda, jumladan, teng huquqlilik bo‘yicha normativ-hujjatlarni shakllantirish, gender tenglikni joriy qilish, gender tenglik yondashuvini barcha sohalarga joriy etish, xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha aniq choralarni shakllantirishga e‘tibor qaratilgan.

Dissertant Yevropa davlatlarida gender tengligini ta‘minlash va unga rioya etilishi ustidan nazoratni tashkil etishning turli modellari qo‘llanishi, shu bilan birga, bu tamoyil ko‘pincha konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan va bu sohada vakolatli maxsus davlat organlari mavjudligini ko‘rsatib bergan.

Tadqiqotchining fikricha, gender tengligini ta‘minlash, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish bo‘yicha Niderlandiya, Irlandiya, Germaniya tajribasi O‘zbekiston uchun samarali model hisoblanadi. Ushbu davlatlarda davlat xizmatchilarining jinsi bo‘yicha tanlash davlat kadrlar siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga aylangani bilan izohlanadi. Natijada hokimiyat vakillik organlarida, vazirlik va boshqa davlat organlarida rahbarlik lavozimlarida xotin-qizlarning keng vakilligi ta‘minlangan.

Xorijiy tajriba tahliliga ko‘ra, dissertant mehnat faoliyatidagi gender tafovutlari imkon qadar qisqartirilishi kerakligi, ayollarning ish bilan ta‘minlanishiga yordam beradigan strategiyalar ikki baravar ko‘p natijani keltirib chiqaradi, degan xulosani ilgari suradi. Mehnat va oilaviy majburiyatlarni bajarishdagi har qanday yaxshilanish ayollarga o‘z iste‘dodlarini yanada yaxshiroq ishlatishga yordam beradi, deb hisoblaydi.

Dissertantning fikricha, xalqaro huquqda mustahkamlangan gender tengligi tamoyiliga rioya qilish talabi har qanday mamlakatda gender tafovutini sezilarli darajada qisqartirish uchun zarur, ammo yetarli bo‘lmagan shartdir. O‘zbekistonda xotin-qizlar va erkaklarning huquq va imkoniyatlaridagi tafovutni samarali ravishda qisqartirish uchun xalqaro huquq normalarini kiritish orqali milliy qonunchilikni tegishli tashkiliy-huquqiy mexanizmlar bilan to‘ldirish zarur.

Tadqiqotchining fikricha, respublikamizda gender tenglikni ta‘minlash maqsadida tashkil etilgan mas‘ul va hamkor tashkilotlar o‘zaro hamjihat harakat qilishlari zarur, gender tenglikni ta‘minlashga mas‘ul organ va tashkilotlarning yagona maqsadi, umumiy rejasi bo‘lishi kerak. Har bir organ, tashkilot, muassasaning bu boradagi alohida-alohida rejaları gender tenglikni ta‘minlash borasida olib borilayotgan islohotlar izchilligi, uyg‘unligi va samaradorligini yetarli darajada ta‘minlash imkonini

bermaydi. Gender tenglikni ta'minlash borasidagi maqsad va rejalarning aniq va mushtarakligi ish samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslanib dissertantning qayd etishicha, hozir jahonda xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida gender tengsizlik borasidagi asosiy muammolar ish haqi o'rtasidagi farq, erkaklarga qaraganda xotin-qizlarning yuqori lavozimlarga kam o'sishi, oiladagi zo'ravonliklar va jinsiy tegajog'lik (harassment) kabilar kiradi. O'tkazilgan so'rov natijasida tadqiqot ishtirokchilari "Kam maosh to'lanadigan kasblarda ayollarning erkaklarga nisbatan ko'proq ishlashining asosiy sababi nima?" degan savolga "Erkak oilaga pulning asosan ko'p qismini olib kelishi lozim, shuning uchun unga yuqoriroq maoshli ish kerak", degan javobni 26,8 foiz respondent tanlagan. Shundan 26,3 foizi esa Ayollar fiziologik va psixologik xususiyatlari (tug'ish, jismonan erkakdan zaifroq bo'lishi va boshq.)ga ko'ra kam maosh to'lanadigan kasblarda ishlasa bo'laverishini bildirgan. Vaholanki, 21,1 foizi "Ayolning ilm va kasb malakasini oshirishiga yetarli e'tibor qaratilmagan", 11,3 foizi "Ayolning oilaga biroz sarmoya kiritishining o'zi yetarli", deb biladi, ulardan 8 foizi "Ayollar umuman ishlamagani ma'qul", deb hisoblaydi.

